ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

"G'ARBIY YEVROPA SAN'ATI: GOTIKA DAVRI" MAVZUSI BO'YICHA INTERFAOL O'QITISH LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH

Mirboboyeva G, Mirzamaxmudova Y
Farg'ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Maqolada g'arbiy yevropa madaniyatidan Gotika uslubi haqida ma'lumotlar keltirilgan Gotika uslubi o'rta asrlarni modasi insoniyat tarixidagi juda bir antiqa moda xisoblanib shu davr uslubini dars jarayonida pedagogic texnologiyalarni interfaol o'qitish metodlarini qo'llab dars o'tish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: kostyum, poyabzal, forma, tabiat, simmetriya, funksiya, rang, chiziq, ornament, peyzaj, plastika, qiyalik darajasi, proza, proporsiya, gotika uslubi,shakllar.

Аннотация: В статье представлены сведения о готическом стиле в западноевропейской культуре. Готический стиль считается древнейшим направлением моды в истории человечества. Приводятся сведения об использовании интерактивных методов обучения и педагогических технологий в процессе преподавания стиля этого периода.

Ключевые слова: костюм, обувь, униформа, природа, симметрия, функция, цвет, линия, орнамент, пейзаж, пластика, наклон, проза, пропорция, готический стиль, формы.

Abstract: This article presents information about the Gothic style in Western European culture. The Gothic style is considered the oldest fashion movement in human history. It also provides information on the use of interactive teaching methods and pedagogical technologies in teaching the style of this period.

Keywords: costume, footwear, uniform, nature, symmetry, function, color, line, ornament, landscape, plasticity, tilt, prose, proportion, Gothic style, forms.

Gotika - badiiy uslub bo'lib, XII asrda G'arbiy Fransiya yerlarida, shuningdek, G'arbiy Markaziy va qisman Sharqiy Yevropaga ham tarqalgan. Gotika uslubining nomlanishi 410-yilda Rimni butkul talon-taroj qilgan germaniyalik varvarlar qabilasining gotlari nomi bilan bog'liq. Rimning ag'darilishi antik davrni yakunlanishiga va tarixda Yevropa madaniyatida o'rta asrlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Chuqur ilohiy fikrlar, matematik hisoblar, qurilishda mukammallashgan texnikaning qo'llanilishi "Gotika" deb nomlandi. Bu jarayon badiiy dunyoning shakllanishiga yo'l qo'yib berdi.

Gotikaning davrlarga bo'linishi quyidagicha:

-XII asr ikkinchi yarmi –XIII asr birinchi choragi –erta gotika;

-XIII asrning ikkinchi choragi –XIV asr- yuqori gotika;

-XIV-XV asr- kechki gotika.

Gotika mumtoz shaklga ega bo'lgan toshli cherkovlar joylashgan G'arbiy Fransiyada dunyoga keldi. Gotika cherkovlarining dadil va murakkab karkasli konstruksiyasi roman uslubida qurilgan binolarning salmoqliligina yengishiga turtki bo'ldi. Erta gotika davrida san'atning murakkab va boyitish sintezi ro'y berdi. Kechki gotika san'atida, asosan, odam va uning hissiyotlariga, hayotning murakkab dramatizmi, tragediya sahnalaridagi azob va o'limga e'tibor berilgan. Bu davrda katta savdo qatorlari, saroy, uylar va turar joylarni, binolar jadal ravishda qurilganligini ko'rish mumkin. Bularning barchasi murakkab bezak bilan bezatilgan. Kechki gotika davrining rivojlanishini ko'pgina davlatlarda kuzatilganligi sababli, "Xalqaro gotika" deb ham nomlanadi. Bu davrda gotika

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

uslubi binolarni shakllantirishda yangi g'oyalarni berolmadi, barcha e'tibor bezak berishga qaratilgan edi. Me'morchilik bezagi o'zining hajmiyligini yo'qatib, devor usti, minora va birlashmalarni to'rsimon bezaklari bilan bezatilgan. Haykaltaroshlik va rangtasvirda portret va manzara janrlari rivojlanib borgan. Obrazlar alohida xususiyatlarga xos tarzda talqin etilgan.

Gotika davri – kitob miniaturasi, emal, badiiy ttalabalik, kumushdan, qimmatbaho toshlardan, fil suyagidan yasalgan dekorativ bezak buyumlari gullab-yashnagan davri hisoblanadi. Masalan, limoj emallari bo'yoqlari (Fransiya) bugungi kungacha o'z tarovatini yo'qotmagan. Gotika uslubi badiiy-maishiy buyumlarni, mebel, kiyim, bezak va me'morchilikni bir butun ansambl shaklida mujassamlashtirdi. Me'morchilik gotika uslubining asosiy bosh shakl hosil qiluvchi omillaridan biri bo'lganligi sababli, mebel, cherkov buyumlarining shakllari miniaturada, kompozitsiyada va me'morchilik obidalarining qismlarida takrorlanar edi. Gotika uslubi turli davlatlarda aniq milliy xususiyatlari bilan ajralib turgan. Fransiyada – bino qismlarining mutanosibligi, me'yorlilik tuyg'usi, shakllar nafisligini ko'rish mumkin. Angliyada esa – og'irlik, kompozisiyaning haddan ortiq bo'lishi, me'morchilik detallarida bachkanaligi bilan ajralib turadi. Germaniya gotikasida diqqatni chalg'ituvchi, tasavvurga asoslangan, xarakter jihatidan jo'shqinlikni kuzatish mumkin. Ispaniyada esa gotika shakllari musulmon san'ati elementlari bilan boyitilgan. Italiyaga esa XIII asrda gotikaning ayrim elementlari kirib keldi, ammo XIV asrda bu davlatda ham gotika uslubi bir maromda rivojlana bordi.

Dars bu, sinfda taqvim-mavzu reja asosida belgilangan vaqt davomida o`qituvchi tomonidan o`quvchilar uchun o`quv-tarbiya jarayonining maqsadli tashkil etilishidir.Shunday ekan, har bir o`qituvchi darsga sifatli va puxta tayyorlanmasdan kirishni insoniylikka, pok vijdonga xiyonat ekanligini va ish haqini halollab olish lozimligini his qilishi kerak. Chunki, har bir fan o`qituvchisi faoliyati asosini sifatli dars o`tish, o`quvchilarga yaxshi ta'lim-tarbiya berish tashkil etadi. O`qituvchining darsga tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi ikki bosqichdan iborat:

1.O`qituvchining o`z fani yuzasidan umumiy tayyorgarligi.

2.O`qituvchining har bir darsga kundalik tayyorgarligi.

O'qituvchi har bir darsni muayyan mavzularning izchilligi va dars bosqichlarining ketma-ketligiga rioya qilgan holda o'tishi kerak.

O'quv mashg'ulotiga kirish. Talabalar o'qituvchi auditoriyaga kirib kelganinga ko'ra kutib oladilar va dars mashg'uloti o'tishiga qarab kuzatib qo'yadilar. Auditoriyaga kirib kelgan o'qituvchibirinchi navbatda tanaffus paytida diqqati tarqalgan talabalarni o'ziga jalb qilishi kerak. Men ushbu jarayonda, odatda, "Mantiqiy muammo" usulidan foydalanaman. Dars mazmunidan yiroq bo'lmagan, har qanday auditoriya qiziqishi mumkin bo'lgan umumiy savolni auditoriyaga beraman. Misol:

1.Buxoro amiri saroyidan bir vazifada ishlaydigan ayollar bo'lganki, ular amirlik bo'ylab har bir xonadobga kirib, sotiladigan tilla taqinchoqlarni ayollarga ko'rsatishi kerak bo'lgan. Savol: bundan ko'zlangan maqsad nima?

2.Bir shoh saroyiga fuqaro kelipti va unda hechkim qilolmaydigan-5 metr naridan turib, ignaga ip o'tkazish qobiliyati bor ekanligini aytipti, shoh buyrug'iga ko'ra igna va ip keltirilipti, o'sha odam haqiqatan ham 5 metr masofa oralig'idagi ignadan ip o'tqazipti. Buni ko'rgan shoh unga avval ming tilla berishlarini va keyin ming darra uyrishlarini buyuripti. Savol: nimaga avval mukofotlash, keyin esa jazolsh buyuriladi?

Asosiy qism: takrorlash: O'rganilgan bilim vaqt-vaqti bilan takrorlanib turilar ekan, u xotirada uzoq vaqt qoladi. Zero, takrorlash-bilimning otasi, qolaversa, dars mashg'ulotidagi bu


ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

bosqich o'tilgan mavzu bilan yangi mavzu bog'liqligini ta'minlaydi. San'at tarixi fanida yillar va joy nomlari ko'p qo'llanilishi sababli talabalar ushbu ma'lumotlarni eslab qolishga qiynaladilar. Visual o'yinlar esa bu borada ancha yordam beradi. Shu sababli ham, bu bosqichda "Tushunchalar tahlili" metodini tavsiya qilaman.

Yangi mavzu bayoni. Yangi ma'lumotlarni "Power point" dasturining odatiy taqdimotlari orqali gapirib berish – bugungi kun talabasi uchun zerikarli. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan bunday davrda yangi va eslab qolish qiyin bo'lgan bunday ma'lumotlarni turli infografik-animatsion dasturlarda namoyish etish ham talabalar diqqatini oshiradi, ham ularning xotirasida uzoq vat saqlanishi uchun xizmat qiladi.



1-rasm. "Canva" dasturidan "San'at tarixi" darslarida foydalanish

Yangi mavzuni mustahkamlash. Mavzuni mustahkamlashda faqat bir yoqlama: test, savol-javob usullari, muammoli vaziyatdan ko'ra, har uchchala usulni o'zida birlashtirgan "Assesment" metodi samarali deb hisoblayman.

"Assesment" inglizcha "assessment" so'zidan olingan bo'lib, "baho", "baholash" ma'nolarini bildiradi. Assesment metodi talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami bo'lib, u biografik anketa, ta'lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshirig'i, bahs- munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individul keys, taqdimot, ekspert kuzatishi, rolli hamda ishbilarmonlik o'yinlari kabilardan tashkil topadi. Bu metod asosan quyidagi **uch maqsadga** xizmat qiladi:

- talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholash;
- talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;
- talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istikbol reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish.

"Assesment" metodi o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanish yoki dars oxirida yoki o'quv predmetning biron-bir bo'limi tugallanganida) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasshsh baholash takrorlash mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta'lim oluvchilarning bilimlarini tekshirib olish, malaka oshirishga kelgan tinglovchilarning dastlabki bilimlari, ko'nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo'ljallangan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

“Assesment” metodi bo’yicha topshiriq namunasi

Test. Qachon Italiyaga gotikaning ayrim elementlari kirib keldi?

1. XIII asrda
2. XX asrda
3. V asrda
4. X asrda

Muammoli vaziyat. Gotika davrining shakllanishiga nima sabab bo’ldi va bu uslubning bugungi kundagi ahamiyati qanday?

Simptom. (Mavzu bo’yicha ilmiy-nazariy fikrlar, g’oyalar, ta’riflar tugallanmagan fikr ko’rinishida beriladi)

Gotikaning davrlarga bo’linishi quyidagicha:

1.
2.
3.

Amaliy ko’nikma.(O’tilgan mavzu mazmunini amaliy topshiriq orqali izohlanadi: chizing, hisoblang, to’ldiring, izohlang)

Gotika - _____ uslub bo’lib, __ asrda _____ yerlarida tarqalgan, uslubning nomlanishi ___-yilda Rimni butkul talon-taroj qilgan germaniyalik varvarlar qabilasining _____ nomi bilan bog’liq.

"G‘arbiy Yevropa san'ati: Gotika davri" mavzusi bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotining texnologik modeli

1-jadval

Mashg‘ulot shakli	Ma’ruza
Ma’ruza rejasi	1.Gotika davrining umumiy tavsifi 2.Gotikaning Yevropa mamlakatlari bo‘ylab tarqalishi 3.Gotika davri me’morchiligi
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:	"G’arbiy Yevropa san'ati: gotika davri" haqida yangi bilim berish, talabalarning dunyoqarashlarini kengaytirish.
Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyati natijalari:
1.G‘arbiy Yevropa san'ati: gotika davri haqida talabalar tanishtiriladi. 2.Gotikaning shakllanishi, Yevropa mamlakatlari bo’yicha tarqalishi to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi 3.Gotika davrining san’atning turli sohalariga ta’siri va namoyon bo’lish belgilari to’g’risida ma’lumot beriladi.	1.G‘arbiy Yevropa san'ati: gotika davri mavzusini daftarlariga qayd etadi. 2. Gotika davrining umumiy tavsifi, gotikaning Yevropa mamlakatlari bo‘ylab tarqalishi,gotika davri me’morchiligi haqida tushunchaga ega bo‘ladil. 3. Gotika davrining san’atning turli sohalariga ta’siri va namoyon bo’lish belgilarini bilib oladi. 5. O‘qituvchining darsga tayyorlanishi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Ta’lim metodi:	Ma’ruza, mantiqiy muammo, assessment texnikasi
Ta’lim vositalari:	Ma’ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, infografik dasturlar, o‘quv qurollari.
Ta’lim shakli:	Yakka, guruhlarda ishlash.
O‘qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya.
Nazorat va baholash.	O‘yin metodlari, nazorat savollari, test

Mashg‘ulotining texnologik xaritasi

2-jadval

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (5 daqiqa)	Salomlashiladi. Davomat aniqlanadi. Talabalar diqqatini jamlash maqsadida mantiqiy savol beriladi.	O’z fikrini bildiradi.
2-bosqich. Asosiy qism (55 daqiqa)	2.1. Talabalarning avval o’rganilgan mavzu yuzasidan bilimlarni takrorlash maqsadida u “Tushunchalar tahlili”, “3xil javob” metodi bajarilishini aytadi va tegishli qonun-qoidalar bilan tanishtiradi. 2.2. Ma’ruza rejasining barcha savollari bo‘yicha ko‘rgazmali materialni namoyish qiladi. (1-ilova) Mavzuning asosiy tushunchalarini yozib olishlarini so‘raydi. 2.3. Auditoriyani ekrandan tanlangan raqamlarga ko’ra kichik guruhlarga bo’ladi. 2.4. Har bir guruhga turli davlatlarni bo’lib beradi va ularga topshiriqni tushuntiradi. 2.5.Guruhlar faoliyatini o’rganadi.	2.1.Tinglaydi. Toshiriqni bajaradi. Javoblarini izohlaydi. 2.2.Tinglaydi yozib oladi va savollar beradi. 2.3. Kichik guruhlarga bo’linadi va guruhga nom tanlaydilar. 2.4.Berilgan davlat bo’yicha ma’lumotlarni A2 qog’ozga kollaj ko’rishida yozib borishadi. 2.5.Faoliyat natijalarini taqdim qilishadi.
3-bosqich, Yakuniy qism (20 daqiqa)	3.1. Talabalarning mavzu yuzasidan tasavvurlarini aniqlashtirish maqsadida “Assesment” jadvali tarqatadi.(2-ilova) 3.2. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. 3.3. Mavzu bo‘yicha yakun yasaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida	3.1.Jadvalni to’ldiradi. Javoblarini izohlaydi. 3.2. O‘z bilimlarini boyitadi, xato javoblarni to’g’irlaydi. 3.3. Tinglaydi. Fikr bildiradi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

	ahamiyatga ega ekanligi, muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.4. Baholaydi, rag'batlantiradi. 3.5. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi.	 3.4. O'z bahosini bilib oladi. 3.5. Uyga vazifani yozib oladi.

Xulosa

Men interfaol pedagogik texnologiya deganda talabalarga mustaqillik berishni tushunaman. Talabalarga bunday imkoniyatni berish, bu faqat talabalarning o'zlarida intilish paydo qilishga va pedagogik mehnat samarasini ko'tarishga sabab bo'ladi. Bunda an'anaviy darsdan farqli talabani mustaqil fikrlashga, faol bo'lishga va bilimlarni, ko'nikma va malakaga aylantirishga motiv uyg'otadi. Zero, davr talabi bo'yicha yosh mutaxassaslarni bilimli, mustaqil fikrlaydigan, innovator, komil inson sifatida shakllanishida pedagogik texnologiyalarning asl maqsadi namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdusattorovna M. G. The Art of Model Crafting: Utilizing A Spectrum of Paint Mediums //American Journal of Technology and Applied Sciences. – 2023. – T. 19. – C. 48-54.

2.Mirboboeva G., Isroilova N., Rakhmonova M. A COMPARATIVE ANALYSIS OF FLAX FIBRE FOR INDUSTRIAL APPLICATIONS //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 11-16.

3.Mirboboyeva G. A. QO 'LDA BAJARILADIGAN KASHTA CHOKLARI TURLARINI O 'RGANISH //YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 870-873.

4.Maxmudjon T., Gulxayo M. GAZLAMALARNI BO 'YASHDA ISHLATILADIGAN BO 'YOQLAR HAQIDA MA'LUMOTLARNI O'RGANISH //IZLANUVCHI. – 2025. – T. 1. – №. 7. – C. 304-307. 5.Mirboboyeva G. A. et al. ZIG 'IR TOLASINI OLISH TEXNOLOGIYASINI QADIMGI USULLARI //YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 2. – №. 8. – C. 702-707.

6. MG Abdusattorovna, UN Qosimjonovna Retro style in modeling women's clothing Asian Journal of Multidimensional Research 10 (9), 372-376 7.Mirboboeva Gulhayo Abdusattorovna Tursunov Davron Shamsiddin ogli (2023). Theoretical justification for improving the design of special clothing to optimize its design. academicia globe: inderscience research, 4(03), 246–251.

8. G.A. Mirboboyeva. (2025). "CHARM – MO'YNA KREATIV GRAFIKASI TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISHDA INNOVASION INTERFAOL METODLAR QO'LLASH. Multidisciplinary journal of science and technology, 5(10), 1103–1108.